

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI UY VA YOVVIOYI HAYVONLAR BILAN TANISHTIRISH USULLARI

Курбонова Юлдуз Джумаевна

Термиз давлат педагогика институти, Мактабгача таълимда тарбияни таъмин этиши кафедраси ўқитувчиси,

Annatotsiya: Bolalarni jonli va jonsiz tabiat haqidagi tushunchalarini rivojlantirish, ularda tabiatga to'g'ri muosabatni shakllantirish, ona vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash maktabgacha ta'lim tashkilotining asosiy maqsadining bir qismidir.

Kalit so'zlar: uy va yovvoyi hayvonlar, usullar, hayvonlarning yashash tarzi, o'ynlar, sezgilar orqali o'rganish, ertak va hikoyalar, amaliy mashg'ulotlar.

МЕТОДИКА ЗНАКОМСТВА ДЕТЕЙ С ДОМАШНИМИ И ДИКИМИ ЖИВОТНЫМИ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Курбонова Юлдуз Джумаевна

Термезский государственный педагогический институт, преподаватель кафедры организации воспитания в дошкольном образовании,

Аннотация: Развитие у детей представлений о живой и неживой природе, формирование у них правильного отношения к природе, воспитание в духе любви к Родине являются одной из основных целей деятельности дошкольной образовательной организации.

Ключевые слова: домашние и дикие животные, методы, образ жизни животных, игры, обучение через органы чувств, сказки и рассказы, практические занятия.

METHODS OF INTRODUCING CHILDREN WITH DOMESTIC AND WILD ANIMALS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Kurbonova Yulduz Dzhumaevna

Teacher of the Department of Organization of Education in Preschool Education, Termez State Pedagogical Institute,

Abstract: Developing children's understanding of animate and inanimate nature, forming in them a correct attitude towards nature, and educating them in the spirit

of love for the motherland are part of the main goals of the preschool educational organization.

Keywords: domestic and wild animals, methods, animal lifestyles, games, learning through the senses, fairy tales and stories, practical exercises.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning dunyoqarashi va tushunchalari juda tez shakllanadi. Ular uchun hayvonlar, ularning yashash joylari va xulq-atvori haqida bilim olish qiziqarli, shuning bilan birga bolalarning aqliy, axloqiy rivojlanishining muhim qismi hamdir. Bolalarning har bir yosh davrida turlicha rivojlanish xususiyatlariga ega ekanliklarini hisobga olib ular uchun hayvonlar haqida ma'lumotlarni yetkazishning turli yosh guruhlariga mos usullarini tanlay bilish muhimdir. Bolalarni hayvonlar bilan tanishtishda, ularning o'ziga xos qiziqishlari, kognitiv va hissiy rivojlanishi, yurtimizda kengaygan metodologiyalarga asoslanadi. Har bir yosh bosqichida bolalar o'zlarining rivojlanish darajasiga mos tarzda hayvonlar bilan tanishtirilishi kerak.

Jumladan, 2-3 yoshdagi bolalar uchun uy va yovvoyi hayvonlar bilan tanishtirar ekanmiz, bu yoshdagi bolalarda sezgilarning rivojlanishini e'tiborga olish lozim bo'ladi. Bu davrda bolalar rivojlanish sezgilar orqali o'rganishga asoslangan, ya'ni ular ko'rgan, eshitgan, his qilgan narsalarni tezda o'zlashtiradilar. Bu yoshda bolalar uchun hayvonlar haqida bilimlar oddiy, aniq va sezilarli bo'lishi kerak. Uy va yovvoyi hayvonlarning xarakteristikalar va tovushlari ularning rivojlanishiga mos ravishda taqdim etilishi zarur, bo'lib quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

Hayvonlarning tovushlarini takrorlash: Bu yoshdagi bolalar ko'p hollarda tovushlarga e'tibor beradilar. Ular hayvonlarning tovushlarini, masalan, itning "vov-vov" degan ovozi yoki mushukning "miyov" lagan tovushini eshitib, eslab qoladilar, ular bilan o'ynashni yaxshi ko'radilar. Bu usul orqali bola hayvonlarning xususiyatlarini o'rganadi.

Hayvonlarni tasvirlash: Rasmlar yoki videolavhalar yordamida hayvonlarni tanishtirish. Masalan, it va mushukning rasmiga qarash va ularga bog'liq turli harakatlarni videoda ko'rsatish orqali bola ular haqida tasavvurga ega bo'ladi.

O'yinlar va taqlid qilish: Bolalarga hayvonlarning harakatlarini takrorlashni taklif qilish. Masalan, ular itning yugurishini yoki qushning uchishini taqlid qilib, o'zlarini hayvonlar sifatida his qilishadi.

3-4 yoshdagi bolalar ko'proq tushunchalarga ega bo'lib, ular hayvonlar va tabiat haqidagi bilimlarni rivojlantirishda qiziqish bildirib boshlaydilar. Ushbu davrda bolalarda tasavvurlar birmuncha kengayadi va ular hayvonlar haqidagi bilimlarni anglashda ijtimoiy va ahloqiy o'rganishga qiziqishadi. Hayvonlar va ularning yashash joylari haqida tushunchalar ularga yanada yaxshiroq bilib olish imkonini beradi.

Ushbu yoshda bolalar bilan quyidagi usullardan foydalanish tavsiya etiladi:

Kichik hikoyalar va ertaklar aytish: Bu yoshdagi bolalar uchun hayvonlar haqidagi oddiy hikoyalar yoki ertaklar o'qish orqali ularning tasavvurlari kengayadi. Masalan, "Bo'ri va quyon" yoki "Mushuk va uning bolalari" kabi hikoyalar bolalarni hayvonlarning xarakterli xususiyatlarini tushunishga undaydi.

Hayvonlarni yashash joylariga qarab tasniflash: Uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlarni farqlash va ularning yashash joylari haqida tushunchalar berish. Misol uchun, "it uyda yashaydi, mushuklar esa ko'pincha uyda yoki bog'da yashaydi" kabi oddiy tushunchalar bolalar uchun muhim bo'ladi.

O'yinlar orqali tanishtirish: Hayvonlarning xususiyatlarini o'rganish uchun turli o'yinlar o'tkazish mumkin. Masalan, "Hayvonlar qayerda yashaydi?", "Uy va yovvoyi hayvonlar nima bilan farq qiladi?", "Bu kimning bolasi?" kabi o'yinlarda bolalar hayvonlarni yashash joylari bilan bog'lashni o'rganadilar.

4-5 yoshda bolalar ko'proq tafakkur qilishni boshlaydilar. Ular hayvonlarning turli xususiyatlarini, yashash joylari va oziqlanish tartibini bilishga qiziqadilar. Ushbu yoshda bolalar murakkabroq tushunchalar va bilimlarga ega bo'ladi. Hayvonlar haqidagi ilmiy bilimlar bolalarning dunyoqarashini yanada kengaytiradi. Bu yoshdagi bolalar uy hayvonlari yashash joyi va oziqlanishi va yovvoyi hayvonlarning xarakterli xususiyati haqida tushunchaga ega bo'la boshlaydilar. Shuningdek, uy hayvonining nega uy hayvoni, yovvoyi hayvonlarning yovvovi tarzda hayot kechirishi haqida bir muncha tasavvurga ega bo'la boshladilar. Bolalarni hayvonlar haqidagi bilimlarini oshirish maqsadida quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tabiatga sayohatlar: Hayvonlarni haqiqiy yashash joylarida ko‘rish uchun bolalar bilan tabiatga sayohat uyushtirish. Misol uchun, hayvonot bog‘lariga borish yoki tabiat qo‘riqxonalari haqida o‘rganish orqali ular hayvonlarning tabiiy muhitini ko‘rishlari mumkin.

Hayvonlarning oziqlanishi va turli xususiyatlarini o‘rganish: Masalan, "itlar go‘sh t yeydi", "qushlar urug‘lar bilan oziqlanadi", "Sigir o‘t yeydi", "Tulki nima yeydi?" kabi bilimlarni bolalar bilan muhokama qilish. Bu orqali ular hayvonlarning oziqlanish tartibini o‘rganadilar va tabiatdagi o‘rni haqida bilimga ega bo‘lishadi.

Ijodiy faoliyatlar: Bolalar bilan hayvonlar haqidagi rasmlarni chizish, hayvonlar haqida kichik hikoyalar tuzish yoki o‘yinlar orqali ularning obrazini yaratish. Bu faoliyatlar bolalarga hayvonlarni yanada kengroq tushunishga yordam beradi.

5-6 yoshdagi bolalar o‘zlarining ilmiy va tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bu yoshda bolalar hayvonlarning turli xususiyatlarini chuqurroq o‘rganadilar va hayvonlarning tabiatdagi o‘rnini tushunishga ko‘proq qiziqadilar. Bolalarning uy va yovvoyi hayvonlar haqidagi bilimlarini turli faoliyatlar orqali yanada kengaytirishlari mumkin. Bolalar uy va yovvoyi hayvonlarni bir- biridan farqini ularning turmush tarzidagi farqdan bilib oladilar, uy havonlarining uyda yashashidan tashqari odamlarga keltiradigan foyadasi haqida tushunchaga ega bo‘ladilar, yovvoyi hayvonlarni yovvoyi tabiatdagi o‘rni va ahamiyatini tushuna boshlaydilar.

Hayvonlar haqida ilmiy tadqiqotlar: Bolalar bilan hayvonlarning turlarini o‘rganish. Masalan, "Tovuq qanday tuxum beradi?", "Tuyaning o‘rkachi nima vazifani bajaradi", "Filning uzun burni nima uchun kerak?" kabi savollarni muhokama qilish orqali bolalar hayvonlar haqidagi ilmiy tushunchalarni o‘rganadilar.

Loyihalar va amaliy mashg‘ulotlar: Hayvonlar haqida o‘qib-yozish (tarbiyachi yordamida), rasm chizish yoki maketlar yasash orqali bolalar hayvonlar haqida ilmiy va amaliy bilimlarni egallashadi.

Tabiatni humoya qilish: Yovvoyi hayvonlarning saqlanishi va ularning tabiatdagi o‘rni haqida mashg‘ulotlar o‘tkazish, videofilmlar namoyish etish. Bolalarga hayvonlar va tabiatni asrab-avaylashning ahamiyati haqida tushunchalar berish.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bolalarni kichik yoshidan boshlab tabiat bilan yaqin munosabatini rivojlantirish, ularning ekologik bilimlarini oshirish, atrof-olamga, ona tabiatga g'amxo'rlik ruhida tarbiyalash maktabgagacha ta'lim tashkilotining bugungi kundagi muhim vazifalaridan biridir.

Bolalarga uy va yovvoyi hayvonlarning tabiatdagi o'rni haqida bilimlar berish va ularning hayotiy tajribalarini oshirishda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatini hisobga olishi, ularning qiziqishini hisobga olgan holda tegishli usullarni qo'llay bilishi muhimdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Djanpiesova M.A., Rasulxo'jaeva M.A.Tabiat bilan tanishtirish metodikasi.O'quv qo'llanma,T.INNAVATSIYA ZIYO-2020 y
- 2..Rasulxo'jaeva M.A. Tabiat bilan tanishtirish metodikasi.O'quv qo'llanma.T.-2013 y.
- 3.Xolboeva G.U.Bolalarni tabiat bilan tanishtirish nazariyasi va texnologiyalari, O'uv qo'llanma.T.2024 y.
- 4.Sodiqova Sh.A.Maktabgacha pedagogika.T.Tafakkur bo'stoni- 2023 y.
- 5.Xaydarov Q.H., Nishonov S.A.Tabiatshunoslik asoslari va bolalarni tabiat bilan tanishtirish.T.O'qituvchi -1992 y.
6. Kurbonova Yu. Maktabgacha ta'lim tashkilotida tabiat burchagini tashkil etishning o'ziga xosligi. Til va adabiyot . Ilmiy-metodik elektron jurnal. 2024/12. 173-175 b.
7. Kurbonova Yu. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ko'rgazmali metoddan foydalanish, Научный импульс, Изд. «МЦНО», 2023/10. 502-507 b.